

XORAZM XONLIK DAVRIDAGI SAN'AT TARIXI

To'lanboyeva Gulziyobonu Muhammadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va

san'atshunoslik fakulteti

“Musiqqa ta'limi” yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi xalfalar maktabi, maqom maktabi, Muhammad Rahimxon II davridagi qadimgi Xorazm musiqasining rivojlanishi, “Xorazm tanbur chizig'i” va rubob cholg'u asbobi yaratilish tarixi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, musiqa, qo'shiq, san'at, san'atkor, maqom, maktab*

Аннотации: *В данной статье рассказывается древняя школа хальфаб школа маком, развитию древней хорезмийской музыки во времена Мухаммада Рахимхана II, «линии Хорезмского танбура» и истории создания музыкального инструмента рубаб.*

Ключевые слова: *Хорезм, музыка, песня, искусство, артист, маком, школа*

Qo'shiqlar inson hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Qadim qadimdan ya'ni 2-3 ming yilliklarda Markaziy Osiyoning eng qudratli davlatlari orasida Xorazm o'zbek qo'shiqchilik tarixi alohida o'rin tutgan. Xorazm qo'shiqchilik san'atining ijro usullari, turli tana xarakatlari, yuz, qosh, ko'z ifodalari, sho'xchangligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Xarobalar ostidan topilgan masxarabozlarning niqoblari, qum soat shaklidagi qo'sh tog'ora, do'mbira shakliga o'xshash ikki torli cholg'u asboblarning naqshinkor nusxa parchalari, xonalarining san'atga oid bezatilganligi qadimgi Xorazm san'atining tarixidan darak beradi.

Xorazm maqom qo'shiqchiligi maktablari ham boshqa maktablar singari qadimdan mavjudligiga shubxa yo'q. Farg'ona xofiz va sozandalari orasida “Maqomning tanasi – Xorazmda, shakllari- Buxoroda, mevasi-Farg'onada” degan

fikrlar ham keng tarqalgan. Aniq tarixiy ma'lumotlarga ishora bo'lmaganda, uning evolyutsiyasi uch davrga bo'linadi. VI-VII asrlardan XII asr boshlarigacha, XII-XV asrlar va XVI asrdan XX asr boshlarigacha.


Dastlabki davrda klassik musiqaning ilk namunasi sifatida "Borbad kuylari" deb nomlangan tizim e'tirof etiladi. Borbad Marviy (Marvaziy) Marvda tug'ilgan bo'lib, o'z davrining buyuk san'atkori bo'lgan. Borbad nafaqat Xorazm maqom maktabining rivojlanishiga, balki Markaziy Osiyo va Eron san'atining rivojiga ham ulkan hissasini qo'shgan. U o'zidan oldingi va o'z davrining mumtoz san'at namunalari bir tizimga joyladi hamda unga "Borbad kuylari" deb nom berdi.

Ikkinchi davr – bunda mohiyattan aql-idrok negizlariga tayangan universal tamoyillar vujudga kelgan. Maqom maktabida 12 maqom, 6 ovoz, 24 shobadan iborat parda tizim joriy etilgan.

Uchinchi davr – Xorazm maqom maktabining eng gullagan davri desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Xiva taxti 49 ta xonni ko'rgan. Xonlardan ba'zilar bir hafta, xattoki uch kun hukmronlik qilganlar. Ularning aksariyati o'lka qo'shiqchiligi maktabining rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bunday xonlar orasida Abdulg'oziy Bahodirxon (1642-1663), Sheroziyxon (1713-1726), Muhammad Rahimxon I (1807-1826), Olloqulixon (1826-1843), Said Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1910) lar Xorazm san'atiga salmoqli hissalarini qo'shishgan.

Muhammad Rahimxon II davrida Xorazm san'ati, adabiyoti, xususan musiqa sohasida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'lgan. Bunday o'zgarishlar jarayoniga boshchilik qilgan xonning shaxsiyati ham muhim ahamiyatga egadir. U turli sohalarda taxsil olgan istedadli shoir, san'at muhlisi hamda uning ijodkori edi. Muhammad Rahimxon II "Feruz" taxallusi bilan she'rlar yozib, devonlar bitgan, dutor va tanbur chalish, mumtoz kuy yo'llarini puxta egallagan. Xivada bosmaxona (toshbosma) tashkil ettirgan. Feruz mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik she'rlar yaratgan. Muhammad Rahimxon II ning she'rlari asosan, ishq-muhabbat mavzusida yozilgan. Inson va hayot, sevgi va sadoqat Feruz ijodining g'oyaviy asosini tashkil qilgan. Ular ohangdorligi, tasviriy-ifodaviy bo'yoqlarga boyligi hamda shaklan rang-barangligi bilan o'z zamonasida sozandalar tomonidan kuyga solib ijro etilgan. Feruz shashmaqom kuylarini o'rganib, saroyda maqom ansamblini

tuzgan. Shashmaqomning tarkibidagi “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” maqomlariga bog‘lab kuylar yaratgan.¹⁴



Xorazm san'atining o'ziga xos qadimiy davrlardan meros bo'lib kelgan an'analari ichida “ustoz-shogirt” atamasi alohida o'rin egallagan. Adabiyot sohasida Muhammad Rahimxon II ga o'z zamonasining yetuk shoiri va allomasi Muhammad Rizo Ogahiy ustozlik qilgan bo'lsa, musiqiy tarafdin rahnamolik qiluvchisi Polvonniyoz Mirzaboshi (adabiy taxallusi Komil Xorazmiy) va uning o'g'li Muhammad Rasul Mirzoboshilar bo'lgan. Maqom san'atining rivojini izchil yo'lga qo'yish uchun Feruzning nazorati ostida saroy sozandalari guruhi tuzilgan. O'z davrining moxir sozandalaridan biri Qalandar Do'nmas bo'lgan. Kunlarning birida navbatdagi saroy bazmida ozarbayjonlik sozanda tor chaladi va unda yangragan kuy Feruzning ko'ngliga yoqib tushadi. Xon tezda Qalandar Do'nmasga shu asbob o'xshash soz yasatib, Xorazm kuylarini ijro etishni buyurgan. Ko'p o'tmay, o'sha tor andozasida yangi asbob yaraladi. Uning parda ovozlari tanbur va dutornikiga mos qilib bog'laydi. Asbobdan taralgan kuy ozarbayjoncha yo'ldan farqlanib, aynan

¹⁴O.Hayitova. “Xorazm qo'shiqchilik san'ati durdonalari” T. 2009. 4-10-betlar.

tanbur va dutorga xos ~~zarb va nolalar~~ taratgan va unga “rubob” deb nom berganlar. Xorazm maqomlarini tanburda emas, rubob (tor) jo‘rligida ijro etishni mashhur san’atkor Xojixon Boltaey boshlab bergan.¹⁵

XIX asrning 70-yillarida bevosita Feruz rahnamoligida Xorazm maqomlarini xatga tushirish uchun maxsus nota yozuvi ustida katta ijodiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishni amalga oshirishni Feruz, Xivaning eng peshqadam musiqashunoslaridan biri o‘zining ustози Komil Xorazmiyga topshirgan. U “Rost” maqomidan bir-ikki kuylarni ko‘rsatib bergan yozuvdan o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzaboshi boshchiligida Xorazm maqomlarini to‘la notalashtirish amalga oshirilgan. Bu yozuv sozandalar orasida “Tanbur chizig‘i”, ilmiy manbalarda esa “Xorazm tanbur notasi” va “Xorazm tabulaturasi” nomlari bilan yuritilgan. Xorazmda

xonandlik, sozandalik va raqqoslikni o‘ziga kasb qilib olgan san’atkorlar guruhi “sozanda qo‘shlari” deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya’ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchi ashulachi, sozchi (garmonchi) ashulachi, raqqos, masxaraboz, so‘z ustasi, dorbozchi, chodir hayol (qo‘g‘irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo‘shlarining vazifasi to‘yda baxshi tugatgandan keyin yanada qizdirish maqsadida o‘z san’atlarini (lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat edi.¹⁶ Xorazmda epik asarlarini, ulardan olingan parchalar yo‘li ayrim termalarni kuylovchi va aytuvchi ijrochilar ko‘p bo‘lgan. Bunday o‘ziga xos ijrochilardan biri “Xalfa” lardir. Xorazmda erkak ijrochilar bilan bir qatorda, ayol ijrochilar ham faoliyat olib borgan. Bu esa albatta xalfalar maktabiga taaluqli bo‘lgan. Odatda xalfachilik san’atini ikki guruhga ajratishgan. Bular “Ansamblli xalfalar” va “Yakka xalfalar”. Ansamblli xalfalar asosan uch kishidan iborat bo‘lgan. Bulardan birinchisi ustoz xalfa soz chaladi va ashula aytgan. Ikkinchi ijrochi doirachi bo‘lib, ustozga jo‘r bo‘lgan. Nihoyat uchinchi ijrochi esa raqsga tushib, qayroq bilan o‘ynagan. Yakka xalfalar doston, qo‘shiq hamda termalarni sozsiz ijro etishgan. Ular ijro qilayotgan asarlarini yoddan yoki qo‘lyozma va kitobdan qiroat bilan ohangda o‘qiganlar. Shuni aytishimiz mumkinki “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Muborak” kabi qo‘shiqlarni chiroyli qilib o‘z maromida ijro etganlar.

¹⁵ B.X.Madrimov. “O‘zbek musiqa tarixi” T. 2018.

¹⁶ O‘z.Me. Birinchi jild. 2000-2005.

Xulosa qilib aytish joizki, ~~Xorazm~~ xonligi davri nafaqat siyosiy, balki madaniy va musiqiy jihatdan muhim tarixiy davr hisoblanga. Bu davrda yaratilgan boy meros hozirgi o'zbek milliy musiqa san'atining shakllanishiga mustahkam poydevor vazifasini o'tab kelmoqda. Uni o'rganish va asrab-avaylash esa har birimizning ma'naviy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Hayitova. "Xorazm qo'shiqchilik san'ati durdonalari" T. 2009. 4-10-betlar.
2. B.X.Madrimov. "O'zbek musiqa tarixi" T. 2018.
3. O'z.Me. Birinchi jild. 2000-2005.